



“SHOHNOMAYI ANDALIB” QO‘LYOZMALARI MANBALARI VA TAVSIFI

Muxlisa Axrorjanovna Maxamatxonova-

*Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tayanch
doktorant, Toshkent, O‘zbekiston*

Annotatsiya Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillaridan biri Andalibning “Shohnomayi Andalib” qo‘lyozma nusxasining tavsifi bayon qilinadi. Qo‘lyozmaning tashqi va ichki xususiyatlari o‘rganilib, uning umumiy tuzilishi yoritiladi. Hamda, qo‘lyozmada kelgan ayrim baytlarning qisqacha mazmuni bayon qilinadi.

Tayanch so‘zlar: muqaddima, basmala, hamd, na‘t, xoshiya, qo‘lyozma, kolofon.

Annotation This article describes the manuscript version of Shohnomayi Andalib by Andalib, one of the representatives of the Kokand literary environment. The external and internal characteristics of the manuscript are examined, and its overall structure is highlighted. Additionally, the meaning of some verses from the manuscript is briefly explained.

Keywords: introduction, basmala, hamd, na‘t, marginal notes, manuscript, colophon.

Kirish. Hozirda Andalibning lirik asarlari jamlangan qo‘lyozma manbalar asosan O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Andalibning ijod namunalarini uning shohnomasida, forsiyda bitilgan devonida va bir qancha bayozlarning ichida tarqoq holatda saqlanib qolgani bizga ma‘lum. Bu esa bizga Andalibning o‘z davrining taniqli shoiri bo‘lib, xalq og‘zida uning sherlari mashhur bo‘lganini anglatadi. Uning asarlarini tadqiq qilib, iste‘molga kiritish bizga o‘sha davr adabiy muhiti, uning siyosiy holati, xalqning orzu-kechinmalari kabi bir qancha qimmatli ma‘lumotlarni bizga xabarini berishi mumkin. Shu kabi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun biz tadqiqot obyekti qilib, Andalibning ijod namunalaridan biri bo‘lgan, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Shohnomayi Andalib” asarining №596 va №696 nusxalarini tanlab qilib oldik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Shohnomayi Andalib” asarini tahlil qilishga kirishar ekanmiz, avvalo matnshunos oldida turgan vazifa - matn tarixini o‘rganishdan boshlaymiz. Matnshunos oldida, u o‘zi tadqiq qilayotgan mavzusiga oid qo‘lyozma va toshbosma manbalarni izlab topmog‘i, tadqiq doirasiga jalb etilgan manbalarni tavsiflash, tahlil qilish, manbalarni o‘zaro qiyoslash, ular orasidagi matniy tafovutlarni aniqlash, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish kabi bir qancha kabi bir qancha vazifalar turadi. “Matn tarixini o‘rganishda matnshunos avvalo - matn tarixini tiklash, tadqiq doirasiga kirgan

manbaning turli nusxalarini qiyosiy o‘rganish, tadqiq etish, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish va ilmiy muomaaga kiritishdir”[1]. Tadqiqot mavzusiga oid barcha manbalarni qo‘lga kiritgandan so‘ng, matnshunos avvalo, asar nomi, uning muallifi, qo‘lyozmaning muqovasi, qo‘lyozma nusxaning o‘lchami, varaqlar soni, qog‘ozi, yozuvi turi, siyohi, muhr yoki bezaklari, satrlar soni, poygirlarning qo‘yilishi, saqlanish holati kabi belgilarini bayon qilishi, hamda, asarning boshlanishi va tugashi, uning tarkibiy tuzilishi, basmala, hamd, na‘t qismlari, kolofon qismi, poygirlarning qo‘yilishi, hoshiyalar, asarni ko‘chirgan kotib, asar ko‘chirilgan yil kabi bir qancha ma‘lumotlarni aniqlab, qayd etib borishi lozim. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan “Shohnomayi Andalib” asarining hozircha bizga ikkita qo‘lyozma nusxasi borligi ma‘lum bo‘lgani uchun, shu ikki nusxani avvalo umumiy tavsifiga kirishmoqlikni ixtiyor qildik. Qo‘limizdagi №596 nusxa №696 nisbatan to‘liqroq bo‘lgani uchun ishni avval shu nusxani umumiy tavsifidan boshlaymiz.

Shohnomayi Andalib asarining №596 raqamli qo‘lyozma nusxasi

Ushbu qo‘lyozma manba qalin atrofi qizil, qora qog‘ozga o‘ralgan bo‘lib, asosiy muqova qora bo‘zga o‘xshash mato bilan o‘ralgan. Qo‘lyozmaning o‘lchami: 18 X31 sm. To‘plam yaxshi holatda saqlangan, uning qog‘ozlarining butunligiga shikast yetmagan. Qog‘ozlari silliq, sariq rangdagi Qo‘qon qog‘ozi bo‘lib, asar nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Matn boshdan oxirigacha yashil siyohda yozilgan. Yozuv xati chiroyli emas. Ayrim matnlar siyoh bilan bo‘yalgan. To‘plamning 1b-sahifasiga kiril yozuvida “Узбекский Государственный Исследовательский Институт Библиотека отд инт №59 гор Самарканд” deb to‘rtburchak shaklidagi muhr ichiga yozilgan. Yuqoriga شاهنامه ديوانه عندليب deb yozilgan. Qo‘lyozmaning varaqlarining chap qismiga qalam bilan kitob raqamlari yozib chiqilgan. Ayrim yozilgan raqamlar o‘chirib, unga tuzatish kiritib qo‘yilgan. Asar matni 538 qatordan iborat, shundan 1a-sahifa - 16 qatordan, 17a va b - sahifalar - 18 qator, 18b- sahifa -10 qator, qolgan hamma sahifalar 19 qatordan iborat. Asarda poygirlar kitob so‘ngiga qadar izchil qo‘yilgan.

Mazkur manba 1b-sahifa yuqorisiga “Shohnomayi Devonayi Andalib” deb sarlavha qo‘yilgan. Ushbu asar sharq kitobatchiligi an‘analari asosida an‘anaviy basmala bilan boshlanadi. “Matn ustida ishlash qo‘lyozmaning tashqi belgilarini o‘rganishdan boshlanadi. Sharq kitobat san‘ati o‘zining qat‘iy prinsiplariga asoslanadi. Masalan, har bir asarning “bismillo”dan boshlanishi (basmala), so‘ng Ollohning madhi (hamd, tamhid) va Muhammad (s.a.v.) ta‘rifi (na‘t), shundan keyin asarning yozilish sababi (sababi ta‘lifi kitob) qaydi kitobat qilinishda tashlab ketilishi mumkin bo‘lmagan asosiy prinsiplardandir”[2]. Biroq ushbu asar mana shu an‘analardan farqli ravishda hamd bilan boshlanmaydi. Chunki, basmalaning ichida ham hamd ma‘nosi bo‘lib, shu sababli shoir basmalaning o‘zi bilan cheklangan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari hamdni shoir yozuvda ifodalamay, lafzda aytgan bo‘lishi ham mumkin. Shu kabi sabablar tufayli asarda hamd qismini yoritmagan bo‘lishi mumkin. Basmala 2b-sahifaning yuqorisiga yozilgan bo‘lib, basmaladan so‘ngra, noan‘anaviy ravishda “mo‘yning madhi” orqali Rosulloh sallollohu alayhi vasallamning na‘tlari bayon etiladi. Bu yerdagi “mo‘y”dan murod, bir vaqtlar Qo‘qon xonligida saqlangan Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi

vasallamga oid deb bilingan “mo‘y” bo‘lib, na’t qismida Rosulloh sallolohu alayhi vasallamning aynan o‘zlarining madhlarini keltirmay, balki u zotga tegishli bo‘lgan mo‘yni madh qilib u Zotni ulug‘lagan. Uning ortidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri asar matniga kirib ketiladi. Sababi, “mo‘yning firoqi” hikoyasi asarning asosiy mavzusiga ham aloqadordir. Chunki shohnoma muqaddimasining davomida hikoya qilinishicha, Amir Nasrullo Qo‘qonga yurish qilib, mamlakatni egallagach, u yerdan Buxoroga qaytib ketayotib, Qo‘qonning mol-mulklarini talon-taroj qilgan. U yerning boyliklarini, shu jumladan xonlikda saqlanayotgan muborak “mo‘y”ni ham o‘zi bilan birga olib ketgan. Bu ayriliq iztirobi esa, muallifning qalbida chuqur iz qoldirgan. Shoir bunga asar muqaddimasida ishora qilib o‘tgan. Asar quyidagi bayt bilan boshlangan:

ایلمی رقم ایمدی بر حکایت
میم حجر فرایق دین روایت
بو گردش چرخدون غماز
بز لارگ جفانی قیلدی اغاز

Ya’ni, “men sizlarga hozir bir hikoyani xabarini beramanki, bu hikoya muhim ayriliq, hijron hikoyasidir. Bu g‘am g‘ildiraklari aylanib, bizlarga jafoni quya boshladi”- deya shoir, avvalo xalqning boshiga tushgan eng katta musibat - mo‘yi muborakdan ayrilishning achchiq firoqi, so‘ngra Amir Nasrulloning Qo‘qon xalqini boshiga solgan turli jafolarini so‘zlab berishiga ishora qilib o‘tgan.

Asar matni nazm bilan boshangan. Buxoro amiri va uning lashkararining holatini bayon qilish yoki bir voqeadan boshqa voqea tafsilotiga kirishmoq uchun ayrim o‘rinlarda shoir nasrga murojaat qilgan. Asar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- So‘z boshi;
 - Amir Nasrullo o‘z davlatida aysh-u ishrat bilan mast bo‘lgan chog‘ida bir kishi kelib, xonlarning urug‘idan bo‘lgan Sheralixonni Ho‘qandni egallab Ibrohim parvonachini shahardan quvganini xabarini yetkazgan chog‘ida Amir Nasrullo g‘azab otiga minib, Ho‘qandni qayta egallab, uni avvalgidan ham battarroq vayron qilishga ahd qilishi;
 - Sheralixon xalq bilan birgalikda Ho‘qandda dushman hujumidan qo‘rg‘on bo‘lishi uchun qal’a barpo qilishi;
 - Amir Nasrullo bu safar Ho‘qandni egallay olmay, askarlari bilan Saritol dashtida sarson sargardon bo‘lishi;
 - Amir Nasrulloni Sheralixonni huzuriga sulh uchun elchi yuborishi;
 - Sheralixonni sulhga ham, urushga ham tayyor ekanini izhor qilishi;
 - Amir Nasrullo elchi yuborganidan tonib, ikkinchi marta elchilarni xon huzuriga kiritmog‘i;
 - Bir suvoriyni Amir Nasrulloni huzuriga kelib, Buxoroga Xiva qo‘shinlari hujum qilganini xabarini berishi;
 - Amir Nasrulloni ko‘p afsuslar chekishi va askarlari bilan ortga qaytib ketishi;
- Asar oxiri quyidagi baytlar bilan xotima topadi:

کورسا تمايوزين بزه دور باره
 كوب قيلدى يور اگميزنى پاره
 والله اعلام بالصواب
 تمت الكتاب بعون ملك الوهاب

Yuqoridagi baytlarda shoir Buxoro askarlarining buzg‘unchiligi, tinch aholiga behad shavqatsizligini, hattoki, shaharda biror uyni ko‘rsa, uni tek qo‘ymay buzib, vayron qilib ketishi, xalqning boshiga ko‘p musibatlarni yog‘dirib ularni yuraklarini pora-pora qilganligi, xalqning bu urushda naqadar jafo chekkanini tasvirlab bergan.

Mazkur nusxa ixtiyorimizdagi №696 qo‘lyozma nusxaga nisbatan nisbatan to‘liq, hamda savodli yozilgani bilan ajralib turadi, Qo‘lyozmada tuzatish kiritilgan o‘rinlar va xoshiyadagi yozuvlar deyarli kuzatilmaydi. Xoshiya yozuvlari faqat ikki o‘rinda berib ketilgan. Shundan, 9a-sahifada “tog‘lig‘” so‘zini o‘zi, 12a-sahifaning xoshiyasida esa quyidagi bayt yozilgan:

هم كوجى يام باغ صحرا
 خالى ايماس ايردى هيچ مأوا
 هر بر كشي اوچ ياراغ آلييان
 غوغا قيليب ايلچينى كولابان
 ايلچى كوروبان بو خلق حالين
 غيرت بىلا سولاكان كلامين
 اول ايكى خليفه بولدى حيران
 خوقند ايلي غيرتين كوروبان

Bu yerda Qo‘qon xoni Sheralixonning huzuriga Amir Nasrullo tarafidan yuborilgan elchilarning Qo‘qon ahli bilan ro‘baro bo‘lgan holati tasvirlangan. Qo‘qon ahli o‘z yurtini dushmanlardan himoya qilish uchun shunchalar g‘ayrat qiladilarki, hatto shaharda qurol ko‘tarmagan biror kishi qolmaydi va ular har qanday holatda ham dushman bilan mardlarcha kurashga tayyor ekanliklarini izhor qiladilar. Buxoro askarlarining sonining ko‘pligi, uning kuch-quvvati shahar ahlini aslo chekinishga unday olmaydi. Bundan, xon huzuriga yo‘l olgan ikki elchining yuragiga g‘ulg‘ula tushadi. Shoir bu yerda o‘z xalqini naqadar millatparvar, erkiparvar va dovyurak ekanligini yorqin suratlarda tasvirlab bergan.

Qo‘lyozmalarni tadqiq qilish jarayonida uning kolofon qismiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Sharq kitobat san‘atida asarlarning oxiriga kolofon ham yozish urf bo‘lgan. Bu esa o‘quvchiga qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib, asarni yozilgan joyi va sanasi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkin. “Matnshunoslikning qat’iy prinsiplari Turonzamin erlariga islom dini va arab yozuvi bilan birga kirib keldi. Islom madaniyatida kitobat san‘ati alohida e‘tiborga loyiq sifatida qaralib, matn tuzishning o‘ziga xos qat’iy strukturasi ishlab chiqilgan edi. Basmala, hamd, na’t, bag‘ishlov kabi asar kirish qismiga taalluqli qoidalar paydo bo‘ldi. Tammat yoki xatmul-kitob, sana va kotib ismi zikr etilishi lozim bo‘lgan kolofon matnshunoslikda qo‘lyozma nusxa kotibining mualliflik huquqini kafolatlash mexanizmi prinsipiga aylandi”. Shohnomayi Andalibning kolofon qismi quyidagi jumlar bilan tugallagan:

اصل نسخه سيدان املاسى اوزكار تلمای يازلدى
۱۳۴۴ شھرہ شعبان مطابق ميلادى افرانچ
فيورال ۱۳ انچى ۱۹۲۶ قوقان

Qo‘lyozma kolofonida ko‘chirilgan sanalar hijriy va milodiy yil hisobida ko‘rsatilgan. Hamda, Qo‘qon shahrida asl nusxadan o‘zgartirilmay ko‘chirilgani ta’kidlangan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, asar asl nusxaga muvofiq bo‘lib, uning asl nusxasi hozir ham mavjud bo‘lish ehtimoli bor. №696//II nusxada tushib qolgan baytlar ko‘p bo‘lib, ularni xoshiyada qora qalam bilan yozib ketilgan. Demak, bundan bilinadiki, №596//III nusxa nisbatan to‘liq va asl nusxaga yaqin variantdir. Asar kolofonida qo‘lyozmani ko‘chirgan kotibning ismi zikr qilinmagan.

Asar haqidagi umumiy ma’lumotlarni hosil qilishda ularni boshqa katalog yoki kitoblarda kelgan tavsiflarini o‘rganish ham alohida e’tiborga molikdir. “Shohnomayi Andalib” haqidagi dastlabki tavsifiy ma’lumot Aziz Qayyumovning³⁷² “Qo‘qon adabiy muhiti” kitobida keltirilgan. Olim kitobga doir asosiy tavsifiy ma’lumotlarni keltirish bilan birgalikda, asar borasida ayrim shaxsiy mulohazalarini ham keltirib o‘tganlar. Shuningdek, asarning yozilish sababi, asarda zikr qilingan tarixiy voqealarning qisqacha bayoni haqidagi dastlabki ma’lumotlarni berib o‘tganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qo‘limizdagi ushbu nusxa nisbatan to‘liq va asl variantga yaqinroqdir. Asar bizgacha yaxshi holatda saqlanib kelgan bo‘lib, uni o‘rganib tadqiq qilish, o‘sha davr adabiyoti, ijtimoiy-siyosiy holati haqida ko‘pgina tasavvurlarni bizga uyg‘otishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Akademnashr, 2015.
2. Сирожиддинов Ш, Матншунослик фанидан ўқув услубий қўлланма. – Т.: 2019.
3. Азиз Қаюмов. Қўқон адабий муҳити. –Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961.
4. О ‘ZFA ShI, №596, “Shohnomayi Andalib”.
5. <https://youtu.be/b5-exeRYMjk?si=-HhVSNZbapFhwy9o>

³⁷² Азиз Қаюмов. Қўқон адабий муҳити. –Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961, –Б. 316.